

GEMIFIKATSIYA ORQALI TURLI YOSHDAGI BOLALARNING EHTIYOJLARIGA MOS RAVISHDA TA'LIM BERISH IMKONIYATLARI

Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Abdulboqiyeva Xurshidaxon Tolibjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gemifikatsiya texnologiyasi orqali turli yoshdagi bolalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim berish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonining tuzilishi, mazmuni va tashkil etilish xususiyatlari yoritilib, gemifikatsiyaning o'quvchilarning qiziqishi, motivatsiyasi va faolligini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, o'yin elementlari asosida tashkil etilgan ta'lim muhitining o'quvchilarning bilimlarni samarali o'zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada gemifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, ularni ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari hamda amaliy tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari gemifikatsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, samarali va innovatsion yondashuv ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gemifikatsiya, ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, o'quv motivatsiyasi, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual yondashuv, o'quv faoliyati, innovatsion pedagogika.

Boshlang'ich ta'lim tizimi o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro integratsiyalashgan, tizimli hamda uzviy bog'liqlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Mazkur bosqichda o'quvchilar shaxs sifatida shakllanish jarayonining faol davrida bo'lib, ularning yoshga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari – bilishga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi, taqlidchanlik, emotsional ta'sirchanlik, tez chalg'ish, individual qobiliyat va xarakter farqlari bilan ajralib turadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim talablari asosida boshlang'ich sinf darsliklari nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar bilimlarni asosan faol ishtirok, tajriba va bajarish orqali o'zlashtiradilar. Bu esa o'qituvchidan dars jarayonini puxta rejalashtirishni, har bir bosqichni didaktik jihatdan asoslashni hamda samarali metod va vositalarni tanlashni talab etadi. Ayniqsa, o'quvchilarning diqqatini jalb etish, ularning o'quv motivatsiyasini oshirish va faol ishtirokini ta'minlash dars samaradorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda darslarni tashkil etish shakllari asosan an'anaviy va noan'anaviy turlarga ajratiladi. An'anaviy darslar ko'proq o'qituvchi yetakchiligida olib borilib, bilimlarni izchil bayon etish va mustahkamlashga yo'naltiriladi. Noan'anaviy darslar esa interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'yin elementlari va ijodiy yondashuvlarga asoslanib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va faol ishtirokini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlarning uyg'un holda qo'llanilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

An'anaviy dars: muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan – bir metodi bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi. An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. SHu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. An'anaviy dars mashg'ulotida barcha dars bosqichlari qadamba-qadam amalga oshiriladi va hech qanday g'ayrioddiylik mavjud emas. Bu o'quvchini darsga bo'lgan ishtiyoning sustligini va dars o'tishdagi bir xillikni ta'minlaydi. Shunday bo'lsada, an'anaviy o'qitishda o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlar mavjuddir. Zero, an'anaviy ta'lim metodlari quyidagi afzalliklarga ega:

Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali ekanligi. Bu an'anaviy ta'limda ilmiylik tamoyilining amal qilayotganligi va o'quvchida tizimli bilimlarning hosil bo'layotganligidir. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi, ta'limning tarbiyaviy xarakterini ifodalaydi. Bunda talabalar sust ishtirok etsalar ham, dars mashg'ulotida ular yuqori intizom na'munalari ko'rsatadilar. Vaqtdan unumli foydalanish natijasida barcha mashg'ulot bosqichlarining to'liq amalga oshishi va vaqt taqsimotining izchillik bilan namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Noan'anaviy dars: dars jarayonida o'qituvchi turli xil ta'lim metodlaridan foydalanishi, sinf jamoasini kichik guruh, katta guruh, yakka kabi holatlarda o'quvchilar o'rtasida olib boriladi. Siz bilan menga tanish bo'lgan quyidagi dars metodlari mavjud: "Aqliy hujum", "Bahsmunozara" " Zigzag", " Interfaol", " Musobaqa " dars kabi bir qancha dars metodlari mavjud. Noan'anaviy dars qiyin va murakkab bo'lgan darslarini oson va amaliy tarzda bajarib, ularda mavzu yuzasidan bilim hosil qilish, ularni erkin fikr bildira olishini ta'minlash, o'z fikrini erkin bayon qila olishini, ularda savol tug'ilgan holatlarda savoliga javob topa olishi va boshqa ko'plab ijobiy yutuqlar mavjud ushbu dars usulida.

Ta'lim jarayonida gemifikatsiya asosida tashkil etilgan darslar noan'anaviy ta'lim shakllari tarkibiga kirib, o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning dars mashg'ulotlariga qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash hamda mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy darslardan farqli ravishda gemifikatsiya o'quv jarayonini interfaol va qiziqarli shaklda tashkil etishga imkon yaratib, o'quvchilarning diqqatini barqaror saqlash hamda ularning o'quv faoliyatidagi faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Gemifikatsiya – bu o'yin elementlari, musobaqa, rag'batlantirish tizimi (ball, reyting, mukofotlar) va qiziqarli topshiriqlar asosida tashkil etiladigan ta'lim texnologiyasi bo'lib, u o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bunday yondashuvda o'quvchilar nafaqat bilim oluvchi, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Sinf yoki guruhlar o'rtasida tashkil etilgan musobaqaviy faoliyat o'quvchilarda hamkorlik, raqobatbardoshlik va jamoaviylik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Eng muhimi, o'quvchilar bilimlarni passiv qabul qilishdan ko'ra, ularni amaliy faoliyat orqali egallashadi, bu esa bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida gemifikatsiya texnologiyasidan deyarli barcha fanlarni o'qitishda samarali foydalanish mumkin. Biroq bu jarayonda o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik talab etiladi. Xususan, o'qituvchi topshiriqlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish darajasi, qiziqishlari hamda individual imkoniyatlarini inobatga olishi zarur.

Shuningdek, gemifikatsiya elementlarini dars mazmuniga mos holda uyg'unlashtirish, ortiqcha murakkablikdan qochish va ta'limiy maqsadni aniq belgilash muhim hisoblanadi.

Masalan, "Ona tili va savodxonlik" fanini o'qitishda gemifikatsiya ayniqsa samarali natija beradi. Xususan, so'z turkumlarini o'rgatishda turli o'yinli topshiriqlar, kartochkalar, rolli mashg'ulotlar yoki guruhli musobaqalar orqali o'quvchilarga bilim berish ularning mavzuni tez va oson o'zlashtirishiga yordam beradi. Bunday yondashuv nazariy ma'lumotlarni oddiy bayon qilishdan ko'ra samaraliroq bo'lib, vaqt va kuchni tejash bilan birga o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Gemifikatsiya texnologiyasi boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuv sifatida o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va natijador tashkil etish imkonini beradi.

Dars jarayoniga asosan o'qituvchi ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, vidioroliklar tayyorlab keladi, bu esa dars jarayoniga puxta tayyorgarlikni, o'quvchilarning diqqatini jalab qilishga yordam beradi. Gemifikatsiya ham huddi shunday o'qituvchiga yordam kuchi hisoblanadi. Masalan o'quvchilarga Fe'l mavzusini o'rgatishda nazariy bilimlarni berib bo'lgach topshiriqlarni o'yin orqali bajarish oson va ongli tushunishga yordam beradi. Nima qildi?, Nima qilyapti?, Nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni aniqlash va ularga so'roq berish topshiriqlari berilgan bolsa, o'quvchilarga quyidagi tartibda ya'ni gemifikatsiya orqali tashkil etish ham qiziqarli ham o'yin orqali aniqlashga yordam beradi: o'qituvchi darslikdagi berilgan so'zlarni kartochkalarga yozib, ma'lum bir o'quvchilarni ajratib olib, ularni doskaga chiqaradi va ular qutidan qog'ozchalardan tortishlari kerak boladi. Bu jarayon yakuniga yetgach ularga 1 daqiqa vaqt beriladi, o'zlariga tushgan qog'ozlarni ochib o'qishadi, berilgan vaqt davomida shartni bajarishga tayyor bo'lishlari kerak. Qolgan o'quvchilar esa, ishtirokchilar o'ziga tushgan ish-harakatlarini navbatma-navbat ko'rsatishadi ular qaysi ish-faoliyatni bildirgan so'zni ko'rsatishayotganini daftarlariga yozib borishadi. Barcha o'quvchilar ko'rsatib bo'lgandan so'ng joylarini egallashadi. Daftarlariga navbatma-navbat yozib borishgan o'quvchilar sheriklari bilan almashtirib bir-biriniki tekshiradi. Natijalar e'lon qilinadi, hammasini to'g'ri bajargan o'quvchi mukofotga sazovor boladi. Bu o'yin birgina topshiriq orqali ishtirokchi va qatnashchilar ongli bajarishadi, ish-harakat bildiruvchi so'zlarni ajrata olish ko'nikmasi shakllanadi. Birgina ona tili savodxonligi darsida emas balki o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fan, tarbiya kabi fanlarda ham albatta gemifikatsiyadan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda gemifikatsiya bolalarda darsga bo'lgan qiziqishini, erkin fikr bildira olishini, diqqatini jamlay olishini, mavzuni to'liq o'zlashtira olishini ta'minlaydi. Gemifikatsiya bolalarni mashg'ulot paytida o'zlarini erkin qo'yishi, o'z munosabatini erkin bayon qilishini, do'stlari bilan birgalikda erkin muloqot qilishiga, sinfdagi past o'zlashtiruvchi va darsga bee'tibor o'quvchilarni chorlashga va eng asosiysi qobiliyatsiz o'quvchilarning ham o'zini namoyon qilishga, eng asosiysi ulardagi qo'rquv va tortilish xislatlarini bartaraf etishga yordam Gemifikatsiya bu motivatsiya va erkinlik, bosimni bo'lmasligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ushlab turadigan ta'lim metodlaridan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'raqulova D.A. Ta'limda gamifikatsiya usullaridan foydalanishning samaradorligi // TDPU ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021.
2. To'xtayev O.B. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonida o'yinli metodlardan foydalanish // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2022. – №3.
3. Xolmatova N.K. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar: gamifikatsiya imkoniyatlari // Andijon davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Andijon, 2022.
4. Гейдт Ю.А. Геймификация в образовании: методическое пособие. – Москва: Просвещение, 2018.

5. Дьяченко О.М. Геймификация как средство повышения мотивации у школьников разных возрастов // Педагогика и психология образования. – 2020. – №5. Кириллова Т.И. (2021). Игровые технологии в обучении: возрастной подход. — Санкт-Петербург: Речь.